



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

O'QUVCHILARNING VATANPARVARLIK TUYG'USINI
SHAKLLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK MAZMUNDAGI O'QUV
MATERIALLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Shomurodov Jamshid Olimboy o'g'li
Oriental Universiteti P.f.f.d PhD, dotsent v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini badiiy estetik mazmundagi bilimlar vositasida shakllantirishga oid fikrlar bayon etilgan. O'quvchilarga vatanparvarlik hissini tarkib toptirishdagi dastlabki bilimlar oilada, maktabgacha ta'lif, umumiy o'rta maktabning dastlabki boshlang'ich sinflardan boshlab o'rgatilishi hamda badiiy-estetik bilimlar orqali o'quvchi yoshlarga singdirilib borilishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: vatan, vatanparvarlik, badiiy estetik tarbiya, o'quv materiallari, millat, ona zamin, tafakkur, ong, hurmat, sadoqat, mehr-oqibat.

Аннотация. В данной статье изложены мысли о формировании чувства патриотизма у учеников через художественно-эстетическое знание. Обсуждается, как первоначальные знания о патриотизме прививаются в семье, дошкольном образовании и в начальных классах общеобразовательной школы, а также как эти знания передаются учащимся через художественно-эстетические дисциплины.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, художественно-эстетическое воспитание, учебные материалы, нация, Родина, мышление, сознание, уважение, верность, доброта.

Annotation: This article presents ideas on forming a sense of patriotism in young learners through artistic and aesthetic knowledge. It discusses how the initial knowledge of patriotism is imparted in the family, preschool education, and the early grades of general secondary school, and how this knowledge is gradually instilled in students through artistic and aesthetic education.

Key words: homeland, patriotism, artistic aesthetic education, educational materials, nation, motherland, thinking, consciousness, respect, loyalty, kindness

*"Agar mendan sizni nima qiyaydi?"
deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lif va tarbiyasi deb javob beraman.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.*

Darhaqiqat, ushbu fikr zamirida chuqur ma'no mujassamdir. Shiddat bilan o'zgarib, rivojlanib kelayotgan bugungi zamonaviy jamiyatda yoshlarga bo'lgan yuksak e'tiborini prezidentimizning quyidagi fikrlarida ham ko'rishimiz mumkin:



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgarayapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim? – Yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”[1].

Vatan haqidagi dastlabgi tushunchalar oilada, Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga ilk tushunchalar mashg‘ulotlar orqali va ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayonida talaba-yoshlar ongiga singdirilib boriladi.

Vatan - bu tushuncha tom ma’noda inson ruhiyati, ota-onasini, farzand, oila, turmush tarzi, ongi, tafakkuri, o‘tmishi, buguni, kelajagini o‘zida mujassamlashtirgan tushunchadir[2].

Vatanostonadan, kindik qoni tomgan joydan boshlanadi. Har bir kishi o‘zi tug‘ilib o‘sgan, shu ona zaminning havosidan nafas olgan yurtda ulg‘ayib kamol topishida, muhtasham va qudratli makon bo‘lgan ona zaminiga mehr-muhabbati, sadoqati abadiy va barqaror bo‘lmog‘i zarur.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, Farzandlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy ong, milliy g`urur tushunchalarini singdirish uchun ular ma’naviy jihatdan sog`lom bo`lishlari zarur. Ma’naviy sog`lomlik esa jismoniy va ruhiy sog`lomlik bilan chambarchas bog‘liq.

Har bir insonning vataniga bo‘lgan muhabbatni ona suti, ona allasi va ota-onasini mehri bilan uning vujudiga singib boradi, ota-onasini avlod-ajdodlari, ularning an’analari, urfodatlari, kasb-korlarini sevuvchi farzand o‘zgalarni ham sevadi. Millati, xalqi, adabiyoti, san’ati, dini va madaniyatidan g`ururlanib, o‘zi o‘sgan yurt tabiatidan ilhomlanib, uning muqaddas tuprog`ining qadrini anglaydi.

Zero, hech bir inson Vatandan tashqarida baxt-saodat topa olmaydi. O‘z yurtida obru-e’tibori bo‘lmagan inson o‘zga yurtda ham qadrlanmaydi.

Shuning uchun ham xalqimizda «O‘zga yurtda sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l», «o‘zga yurtda shoh bo‘lgandan, o‘z yurtingda gado bo‘lgan afzal», «O‘lsang o‘l, vataningda bo‘l!» kabi maqollar bejiz aytilmagan.

Har kimning o‘z xonadoni, uy-joyi, o‘z ona yurti naqadar qadr-qimmatli ekanligini o‘zga yurtga safarga, yashashga borgan inson biladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Furqat va boshqa bobokalonlarimizning o‘zlari tug‘ilib o‘sgan vatanlaridan uzoqda kuchli Vatan sog`inchi-bilan yashaganlari, ona yurt tuprog`ini, unda o‘sgan mevalarni ko`zlariga to`tiyo qilganlari, yurt ishqida iztirob chekkanlari barchaga ayon.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni yuksak madaniyatli, estetik didi yetuk darajada rivojlangan vatanparvar, komil insonlar qilib tarbiyalashda badiiy estetik mazmundagi bilimlarning ahamiyati kattadir. Zeroiki badiiy-estetik mazmundagi bilimlar o‘quvchilarda

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. O'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash jarayoni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

- musiqa pedagogikasining asosiy umumiylarini tamoyillari;
- badiiy estetik didni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan maxsus shart-sharoitlarni ta'minlash.

Badiiy-estetik mazmundagi bilimlar o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng samarali vositasidir. Badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallariga Badiiy adabiyot, Musiqa, tasviriy san'at fanlariga oid namunalar; xalq og'zaki ijod namunalarini, xalq qo'shiqlari, rivoyatlar, aytimlar, she'riy satrlar, musiqiy aytimlarni misol qilishimiz mumkin. Bunday badiiy namunalar xalqning ko'p asrlik hayoti va amaliy faoliyati jarayonida qat'iy lashgan, o'z tasdig'iga ega bo'lgan birlklardir.

Badiiy-estetik bilimlar yordamida ko'plab ijodiy faoliyat natijalari intuitsiya shaklida umumlashadi. Ular to'liq anglanmagan kuzatishlar mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. badiiy-estetik ta'lim jarayoni intuitsiya yangi bilimlarni o'zlashtirish usuli sifatida namoyon bo'ladi. bu o'rinda badiiy-estetik mazmundagi bilimlar, axborotlarning o'quvchilar ongi, ularning sezgilariga tezkor ta'sir ko'rsatishi nazarda tutiladi[3]. O'quvchining ongida ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklar chuqr anglangan holda aks etadi. Bunday jarayonda o'qituvchilar musiqaga oid bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning amaliy faoliyatida qo'llanishiga e'tibor qaratishlari zarur.

Har qanday o'quv materialini anglash uni idrok etishdan boshlanadi. Bunda o'quvchining mavjud bilim va tajribalari badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishlariga ko'maklashadi. O'quvchilar idrokining ko'لامи sezgi xotirasi bilan cheklangandir. U bir soniya ichida 9 tagacha elementni saqlaydi, 5,6 ta elementni qayta ishslash imkoniyatiga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'quvchi yoshlar badiiy-estetik bilimlarni idrok eta olishlari orqali vatanparvarlik tuyg'usi qalblariga singib boradi. Badiiy estetik ruhda ta'lim-tarbiya olayotgan har bir yosh avlodda o'zida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, o'zga xalqlarga mehr-muruvvat, do'stlik, barcha millat va elatlarga hurmat hissini shakllanish imkoniyati vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi
2. Pedagogika ensiklopediyasi. III-jild. B.380.
3. J.O.Shomurodov Badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini kognitiv qabul qilishning dastlabki darajalari // Pedagogika. №4/2023 ISNN 1076-1077. – B. 56-59. (13.00.00.№6)